

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA KO'RGAZMALI METODLARDAN FOYDALANISH.

Termiz tuman 10-umumta'lim maktabi

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Xamidova Xurshida Abdunazarovna

E-mail: xamidovaxurshida@gmail.com

tel: 998 93 6101987

Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li

Termiz davlat pedagogika institute

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi o'qituvchisi,

Termiz (O'zbekiston)

E-mail: qulmuminovorolboy@gmail.com

Тел.: +998995265624

Annotatsiya

Mazkur maqolada mualliflar tomonidan tabiiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmalı metodlarning qo'llanilishi, metodlardan foydalanish mazmuni va yo'llari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, ta'lim, texnologiya, metod, metodika, tafakkur, tabiiy fanlar.

Annotation

In this article, the authors discuss the use of visual methods in the teaching of natural sciences, the content and ways of using the methods.

Keywords: Person, education, technology, method, methodology, thinking, natural sciences.

Tabiiy fanlarni o'qitishda foydalaniladigan metodlar tasnifi. Ma'lumki, o'quv jarayonida tanlangan o'quv materiyallari mazmuni va o'quvchilarning yoshiga muvofiq tarzda tanlangan metodlar bilim sifatining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Metod umumiy ma'noda maqsadga erishish usulidir.

Tabiiy fanlarni o'qitishning og'zaki metodlari ta'lim jarayonida o'quvchi oldida turgan umumta'lim va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshiradi.

O'qitish metodi esa - bu o'qituvchining bilimlar berish va ularni o'quvchilarning o'zlashtirib olish usulidir. Metodning bu ta'rifi uning ikki bir-biriga bog'liq tomonlari:

beruvchi, ta'sir qiluvchi - o'qituvchi;

qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchi - o'quvchilarni ifodalaydi.

Bu o'zaro ta'sir qilishning xarakteri bilim manbaiga bog'liqdir. Bilim manbai o'quv materialining mazmuni bilan belgilanadi, u ta'lim jarayonida yetakchi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'qitish metodlarining turlari. Tabiiy fanlarni o'qitish amaliyotida turli xil o'qitish metodlari qaror topgan. Biroq ushbu ancha muhim belgilarga qarab ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- o'quvchilar bilim oladigan manbalar;

- o'quvchilar faoliyatining xarakteri;

- o'qitish jarayonida o'quvchilar faoliyatining xarakteri.

Bu uch belgi o'rgatish va o'rganishni bir butun jarayon sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Bunda o'qituvchining (o'rgatuvchining) va o'quvchining (o'rganuvchining) faoliyatlari o'zaro bog'langan va taqazo qilingan, bilim manbalari esa o'qituvchining faoliyati bilan o'zaro chambarchas bog'lanishda bo'ladi.

Darsda o'qituvchi turli ta'lim metodlaridan foydalanadi. O'qitish uslublarini tanlashda bir qator omillar: yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o'quv fani, o'rganiladigan materialning mazmuni, o'quvchilarning o'quv materialini egallashga tayyorgarlik darajasi katta ahamiyatga ega.

Uslub tanlash va uni qo'llash xususiyati faqat darsdagi o'quv materialining maqsadiga emas, balki mazmuniga qarab ham aniqlanadi. O'qitish uslubi tushunchasi didaktik va uslubiyatning asosiy tushunchalaridan biri.

Pedagogikada o'qitish deganda, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari, ish usullarini tushunish qabul qilingan. Bu faoliyat yordamida o'qituvchi bilim beradi, o'quvchilar esa bilim doiralarini kengaytiradilar, ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, dunyoqarashini shakllantiruvchi malakalar vujudga keladi.

O'qitish metodi deganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bog'langan faoliyati tushuniladi, buning jarayonida o'quvchilar tomonidan bilim, o'quv va ko'nikmalar o'zlashtiriladi, ularning idrok qilish qobiliyatlari rivojlanadi, dunyoga qarash shakllanadi.

O'qitish metodlari to'g'risidagi masala-geografiyani o'qitish metodikasidagi eng muhim masalalardan biridir: u geografiya tasavvurlari hamda tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, yuqori ta'lim va tarbiya natijalariga erishish uchun qanday o'qitish kerak degan savolga javob berishga imkon beradi.

Metodlar klassifikatsiyasi. Tabiiy fanlarni o'qitish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi.

Og'zaki metodlar- o'qituvchining materialni og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash;

Ko'rgazmali metodlar- namoyish qilish (ko'rsatish), mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar;

Amaliy metodlar- og'zaki va yozma mashqlar, grafik (chizma) va laboratoriya ishlari.

Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Ko'rgazmali metodlar tasnifi. Tabiiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmali uslubdan foydalanish bolalarda aniq faktik bilimlarning to'planib borishiga yordam beradi.

Ko'rgazmali metodni umumpedagogik tamoil, ko'rgazmallilik bilan adashtirmaslik kerak. Bu tushunchalar har xil bo'lib, bir-biriga sira o'xshamaydi. Ko'rgazmali vositalar

deyarli hamma tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladi. Ko'rgazmalilik o'quvchilarning nutqi va tafakkuri nuqsonlarni tuzatish (korreksiyalash)da katta ahamiyatga ega. To'g'ri qo'yilgan savol, keyinroq esa tizimlangan savollar majmuasi namoyish qilinayotgan obyekt va tajribalarga e'tiborni jalb qiladi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan ko'rgazma vositalariga (tirik tabiiy obyektlar va tasviriy jadvallar, sistimalar, mulyajlar, kino, diafilm, diapozitiv) va boshqalar kiradi.

Tabiiy jismlar bilan ishlash metodikasi. Tabiiy fanlarni o'qitish uchun, ayniqsa, tabiiy jismlardan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ular o'quvchilarda tabiiy jismlarni bevosita ko'rish asosida tasavvur va tushunchalarni hosil qilishga imkon beradi.

Tabiiy ko'rgazmali qurollarga- o'simliklar tirik namunalari barcha organlari bilan, tayyor gerbariyalar, urug'lar to'plami, fiksasiyalangan (ho'l) pereparatlar, guldastalar, hayvonot olamining tirik namunalari, skelet va tulumlar, hasharotlar kolleksiyasi, qushlarning tuxumlari va uyalari, loy, qum, daryo toshlari, shag'al, suv, qushlarning pati, minerallar kabilar kiradi. Bular jonli va jonsiz tabiat jismlariga bo'linadi.

Suratlar bilan ishlash metodikasi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarga ular hali ko'rmagan ko'pgina obyekt va hodisalar to'g'risida ma'lumotlar beradi. Biroq eng jozibali va qiziqarli hikoya ham, agar yaxshi surat ko'rsatilmasa, yetarli to'liq va yorqin tasavvurlar bera olmaydi. Faqat suratlarni diqqat bilan ko'rib chiqish orqali tabiiy holdagi jism bilan tanishishdagiga yaqin keladigan taassurotlarni hosil qilish mumkin. Tasviriy ko'rgazmali qurollarga-jadvallar, suratlari, sxemalar, qismli rasmlar, gulqog'ozlar to'plami, xarita, globusa, modellar, mulyajlar, plakatlar, proeksion apparatlar va ekran vositalari kiradi.

Ekran - ovozli ko'rgazma vositalari. Ularga o'quv filmlari, diafilm, gram yozuvlar, o'quv ko'rsatuvlari kiradi. Bu ekran qo'llanmalari harakatdagi voqea-hodisalami ifodalaydi. Ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan, uzoq o'lkalarda mavjud tirik va jonsiz tabiat ujurlarini ha-rakatdagi holatini tabiiy muhitda ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar ham ko'rib, ham eshitish orqali bihm oladilar.

Tabiiy fanlarni o'qitishda mul'timedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Mul'timedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hususan geografiya darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi. Mul'timedia-kompyuter grafikasi vositasini qo'llashning yo'nalishlaridan biri bo'lib bunday texnologiya ta'lim, fan, san'at, iqtisodiyot kabi sohalarga sezilarli o'zgarishlarni kiritadi. Mul'timediali tezkor axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlanishining ilg'or rivojlanishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.

2. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).

3. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.

3. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

4. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Исползования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

5. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

6. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

7. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.

8. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION *Open Access Repository*, 4(02), 434-437

9. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.

10. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.

11. Babamuratov, E., Ulmashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 136-143.

12. Jovliev, J. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. *Open Access Repository*, 10(10), 51-55.

13. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў, илимий-методикалик журнал.-Нукус. -2022. 6/1-1 son. -В. 186-190, (13.00.00. №20).

14. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi// Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi/1-jild, 9-son (Yo'pa). 06-September 2023-yil/ www.in-academy.uz /-B.1-5.

15. Bobomurodov S.M. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni variativ tushunchalar asosida o'qitishda sharq mutafakkirlarining o'rni// Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muommolari. ISSN 2181-1342JILD 3, SON 10. 2023 <https://scienceproblems.uz> DOI:10.47390/SP1342V3I10Y2023 -B. 266-271.

16.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

17.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS.

World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

18.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

19.Boynazarova , N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and Researches, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>

20Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

